

APRIL 23-24

2024



O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



Chirchiq davlat pedagogika
universiteti

Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari

*Current Issues of Modern Philology and
Linguodidactics*

*Aktuelle Fragen der modernen
Philologie und Linguodidaktik*

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

International Scientific and Practical Conference

Internationale wissenschaftliche und praktische Konferenz

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA



CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

CHIRCHIK STATE
PEDAGOGICAL UNIVERSITY

STAATLICHE PÄDAGOGISCHE
UNIVERSITÄT CHIRCHIK

www.cspu.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**«ZAMONAVIY FILOLOGIYA VA LINGVODIDAKTIKANING
DOLZARB MASALALARI»
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI
(Chirchiq sh., 2024 yil 23-24 aprel)**



**MATERIALIEN
der internationalen wissenschaftlichen Konferenz
„AKTUELLE FRAGEN DER MODERNEN PHILOGIE UND
LINGUODIDAKTIK“
(Chirchik, den 23-24 April 2024)**

UO‘K 81;81-13
KBK 80;80-5
Z-23

Tahrir hay’ati:
Redaktion:

F.f.n., prof. **X.R.Raximov**, PhD, dots. **F.T.Rajabov** PhD, dots. **Z.I. Sanakulov**, PhD, dots.
Z.A.Shirnazarova, **Z.M.Kuvonov**, PhD, dots. **D.V.Abduramanova**, **M.A.Usmonxodjayeva**,
F.Sh.Mirvaliyev, **G‘.Yu.Irgashov**, **Z.I.Shaidinova**, **Z.R.Zaripova**, **F.T.Raxmatov**

Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari.. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari (Chirchiq, 2024 yil 23-24 aprel). - Chirchiq, 2024. – 1144 b.

Mazkur to‘plamda Chirchiq davlat pedagogika universitetida 2024 yil 23-24 aprel kunlari bo‘lib o‘tgan “Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqolalari chop etilgan. Konferensiya Germaniya Federativ Respublikasi Mannhaym shahrida joylashgan Nemis tili instituti hamda O‘zbekiston Respublikasining nemis tili o‘qitiladigan universitetlari, jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Namangan davlat universiteti o‘rtasida 2023 yil imzolangan shartnoma doirasida barcha hamkor oliygohlar hamkorligida o‘tkazildi. Shuningdek, bunda Haydelberg pedagogika universiteti, Myunster universiteti va Kyoln universiteti kabi xorijiy hamkor oliygohlarimiz qo‘llab-quvvatlashi kata ahamiyat kasb etdi. Ma‘ruzalar mavzulari zamonaviy tilshunoslik sohalarini hozirgi kun nuqtai nazaridan o‘rganish, xorijda va respublikamizda filologiya va lingvodidaktika sohasida bajarilayotgan ishlar bo‘yicha o‘zaro fikr almashish, ta‘lim-tarbiya jarayonlarida xorijiy tillarni o‘qitishni yuqori saviyada rejalashtirish, tashkillashtirish va o‘tkazish, chet tillarni o‘rgatishning roli va ahamiyati hamda undagi dolzarb muammolar va ularni yechish yo‘llari haqida.

To‘plam xorijiy til mutaxassislari, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, o‘qituvchilar shuningdek, sohaga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Aktuelle Fragen der modernen Philologie und Linguodidaktik. Materialien der internationalen wissenschaftlichen Konferenz (Chirchik, 23.-24. April 2024). - Chirchik, 2024. –S. 1144

In diesem Sammelband wurden die wissenschaftlichen Beiträge der Teilnehmerinnen und Teilnehmer der internationalen wissenschaftlichen Konferenz „Aktuelle Fragen der modernen Philologie und Linguodidaktik“ veröffentlicht, die am 23. und 24. April 2024 an der Staatlichen Pädagogischen Universität Chirchik stattfand. Die Konferenz wurde im Rahmen des Kooperationsvertrages zwischen dem Leibnitz-Institut für Deutsche Sprache in Mannheim und den die germanistische Linguistik vertretenden Institutionen an den Universitäten Usbekistans organisiert: Staatliche Pädagogische Universität Chirchik, Usbekische Staatliche Weltsprachenuniversität Taschkent, Staatliches Institut für Fremdsprachen Samarkand, Nationale Universität von Usbekistan, Staatliche Universität Bukhara, Staatliche Universität Fergana, Staatliche Universität Namangan organisiert. Besonders wichtig war uns auch die Unterstützung unserer ausländischen Partneruniversitäten wie der Pädagogischen Hochschule Heidelberg, der Universität Münster und der Universität zu Köln. Themen der Vorlesungen sind aktuelle Tendenzen in der modernen Philologie und Linguodidaktik im Ausland und in unserer Republik, gegenseitiger Meinungsaustausch über den aktuellen Stand der Planung, Organisation und Durchführung des Fremdsprachenunterrichts, Rolle und Bedeutung des Fremdsprachenunterrichts, aktuelle Probleme und Lösungsansätze.

Der Sammelband richtet sich an Fremdsprachenspezialisten, Studenten, Magisterstudenten, Doktoranden, Lehrer und an alle, die sich für das Thema interessieren.

Die Materialien werden in der Autorenausgabe veröffentlicht



**Assalomu alaykum, muhtaram xonimlar
va janoblar, hurmatli germaniyalik va
o'zbekistonlik mehmon qatnashchilar!**

Avvalambor barchangizni universitetimizda tashkil qilinayotgan “Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga tashrif qilganlaringiz bilan tabriklayman. Buni biz xalqaro miqyosda yuz berayotgan turli muammoli vaziyatlarga qaramasdan O'zbekiston va Germaniya olimlari o'rtasidagi hamkorlik, paydo bo'lgan o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash yo'lida qilinayotgan navbatdagi amaliy qadamlar sifatida minnatdorlik bilan qabul qilamiz va qadrlaymiz.

Universitetimiz tarkibida faoliyati yo'lga qo'yilgan Nemis tili kafedrasi 2021-yilda tashkil etilgan bo'lib, bu yo'nalishda mehnat qilayotgan professor-o'qituvchilar O'zbekiston pedagogika universitetlari oldiga qo'yilgan asosiy ta'lim va tarbiya dasturlari asosida o'z vazifasini bajarib kelmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'limiy vazifalarni ado etishda universitetimiz Germaniyaning qator oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Mannhaymdagi Laybnis nomli nemis tili instituti, Haydelberg pedagogika universiteti, Myunster va Kyoln universitetlari bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda. Bugungi xalqaro anjumanimiz ana shu hamkorlikning bevosita va uzviy davomi sifatida amalga oshirilmoqda. Umid qilamizki, ushbu hamkorlik kelgusida yanada kengroq mazmun va shaklda davom ettiriladi hamda kutilgan natijalarni beradi.

So'zimni muxtasar qilib hurmatli germaniyalik va o'zbekistonlik konferensiya qatnashchilariga bugungi anjumanni samarali o'tkazishda katta muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Prof. G'ofurjon Muxamedov